

**“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA  
TAYYORLASHDA XALQARO TA’LIM DASTURLARIDAN  
FOYDALANISH”**

Jabborova Mohina Ulug’bek qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya  
nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) yo’nalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda xalqaro dasturlardan foydalanishning ahamiyati haqida so’z borgan.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha ta’lim, mashg’ulot, ta’lim-tarbiya, sog’lomlashtirish, xalqaro dasturlar, globallasuv.

Iqtisodiyotning globallasuv jarayoni, transmilliy kompaniyalar, jahon moliyaviy korporatsiyalari va shu kabi tashkilotlarning rivojlanishi dunyoning turli mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo’lajak mutaxassislariga qat’iy talab qoymoqda. Bu esa o’z navbatida turli davlatlar ta’lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish va tenglashtirish masalasini qo’ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim tizimlarini taqqoslash, buning uchun chet el ta’lim tajribalarini o’rganish, tahlil qilish va ijobiy jihatlarni “ko’chirish” zarurati paydo boldi. Lekin shunchaki “ko’chirish” emas, balki har bir xalqning milliy-madaniy mentaliteti, o’ziga xosligi, urf-odatlari, an’analarini saqlagan holda amalga oshirish, shu bilan birga raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratish masalasi nazarda tutiladi. Yurtimiz ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo’la olish uchun ta’limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta’limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o’rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o’quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish masalalari mazkur qo’llanmaning asosiy maqsadidir. Hozirgi kungacha qiyosiy pedagogika va chet el pedagogikasi - bir fan sohasining turlicha nomlanishi bo’lib, simonim tushunchalardir degan qarash mavjud. Biroq mazkur yondashuv aniq tuzatish kiritishni talab etadi. Chet el pedagogikasi tavsifiy xarakterga ega bo’lib, uning asosiy maqsadi - chet el ta’limining o’ziga xosligini tavsiflovchi hodisa va dalillarni to’plash va tizimlashtirishdir. Shubhasiz, bu jahon pedagogik tajribasini chuqur va har tomonlama to’liq o’rganishning muhim jihati va zaruriy sharti. Biroq qiyosiy pedagogika o’zida zaruriy nazariy-metodologik komponentlarni tashkil etadi. To’g’ri ayrim holatlarda qiyosiy pedagogika axboriy funksiyani ham bajaradi,



biroq uning asosiy funksiyasi turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning muhim global qonuniyatlari va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etishdir.

Misol uchun Turkiya maktabgacha ta'lim tizimida davlat ta'lim dasturiga qo'shimcha bo'lgan maktabgacha ta'lim 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. Biroq juda yosh bolalarni ham qabul qiladigan muassasalar mavjud. Bolalar tarbiyalanishni (o'qishni) "yasli"da yoki bolalar bog'chasida boshlashi va tayyorgarlik sinfida davom ettirishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni to'liq kun yoki yarim kunga berish mumkin. Bu davlat yoki xususiy bolalar bog'chasi bo'lishi mumkin. Davlat bolalar bog'chasiga qatnashish bepul, lekin ota-onalar kanstovar, kitoblar, qo'llanmalar va boshqa zarur narsalar uchun pul berishi kerak. Xususiy bolalar bog'chasi faqat to'lov asosida qabul qiladi. Narxi oyiga o'rtacha 1000 lirani tashkil qiladi. Ota-onalar, shuningdek, kanstovar, darsliklar va boshqalar kerakli narsalar uchun qo'shimcha pul to'laydilar. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarni jamoaga moslashishga, boshqa bolalar bilan munosabatda bo'lishga, ta'lim jarayoniga ko'nikishga, ularning malakasini oshirishga va ta'limning keyingi bosqichga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Finlandiya misolida oladigan bo'lsak, u yerda maktabgacha ta'limning bir nechta turlari mavjud: umumiy, xususiy va oilaviy. Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimidagi asosiy g'oya "bolalarning yoshligi bo'lishi kerak" degan g'oyadir. Shuning uchun ham u yerda hamma mashg'ulotlar o'yin asosida tashkil etilgan. Bolalar bog'chasi aniq tartibda ishlaydi. Ertalab 6:30 da ochiladi va 17:00ga qadar ish olib boradi. 8:00da nonushta qilishadi va mashg'ulotlar boshlanadi. 9:30da sayrga chiqishadi, 10:30da birinchi tushlik beriladi. 11:00da uxlashga yotishadi va 13:00da uyg'onishadi. Kunduzgi uyqudan so'ng ikkinchi tushlik beriladi va bolalar ketguniga qadar sayr tashkil qilinadi. Ko'rib turganimizdek, Finlandiyada maktabgacha ta'lim tizimi o'yinlar bilan o'zaro bog'liq.

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi 2 oydan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitish, parvarish qilish va rehabilitatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida (bolalar ta'lim muassasalari) amalga oshiriladi, ammo bu tizimning yagona tarkibiy qismlari emas. Shuningdek, shahar va tuman maktabgacha ta'lim bo'limlari mavjud. Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida 45 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud. Maktabgacha ta'limni zamonaviy tashkil etish bolalar bog'chalari, bolalar bog'chalari, maktabgacha ta'lim markazlari va boshqa muassasalar orqali amalga



oshiriladi. Zamonaviy, xususiy va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud. Tizim o'quv jarayonining yaxlitligini, uning tarbiyaviy va rivojlanish xarakterini ta'minlaydi. Bu shuni anglatadiki, maktabgacha ta'lim muassasasida bolaga yaxlit tibbiy, psixologik va pedagogik yordam ko'rsatiladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshda umumiy madaniyat, bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun shart-sharoitlar, intellektual, axloqiy, jismoniy, ijodiy, estetik va shaxsiy fazilatlar shakllana boshlaydi. Tizimning yaxlitligi ta'limning maktabgacha va boshlang'ich maktab bosqichlarining uzluksizligi bilan ham ta'minlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qulay hissiy muhit ta'minlanadi, bolalar o'zlarining moyilliklari va qiziqishlariga ko'ra mustaqillikni qanday amalga oshirishni tanlashlari mumkin.

Ko'rib turganimizdek, har bir davlatning maktabgacha ta'lim tizimi har xil, ammo ularning madsadi bitta: bolalarni har tomonlama yuksaltirish va maktab ta'limiga sifatli tayyorlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G.N. Najmiddinova, O'.U. Qurbonova "Qiyosiy pedagogika" Buxoro-2014
2. Nargiza Qayumova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent -2013
3. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi" Toshkent -2008

